

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

**70910802 – «DORILARNI SANOAT TEXNOLOGIYASI» sohasidagi
mutaxassisining MALAKA TAVSIFNOMASI**

Toshkent - 2021

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent farmatsevtika instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida ma'qullangan.

2021 yil «16» avgust dagi 4 - sonli bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil «31» avgust dagi 117 -sonli buyrug'ining 3- ilovasi bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi


MUNDARIJA

		bet
1.	Umumiy qoidalar	
1.1.	Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan.....	5
1.2.	70910802 - Dorilarni sanoat texnologiyasi mutaxassisligining malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilarni belgilaydi.....	5
1.3.	Ushbu malaka tavsifnomasi mo'ljallangan.....	6
1.4.	<i>Dorilarning sanoat texnologiyasi sohasidagi mutaxassisning</i> malaka tavsifnomasi ishlatiladi:.....	6
1.5.	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi sohasidagi</i> mutaxassisning kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari.....	6
2.	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi sohasidagi</i> mutaxassisning malaka tavsifnomasi	7
2.1.	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi</i> sohasidagi mutaxassisning bilimi:.....	7
2.2.	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi</i> sohasidagi mutaxassisning ko'nikmasi:.....	7
2.3.	Asosiy nazariy bilimlar.....	8
	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi</i> sohasidagi mutaxassis bilishi kerak:.....	8
3.	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi</i> sohasidagi mutaxassisning majburiyatlari.....	8
4.	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi</i> sohasidagi mutaxassis tomonidan bajariladigan faoliyat	9
5.	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi sohasidagi mutaxassis</i> ega bo'lishi shart amaliy ko'nikmalar	9
	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi</i> sohasidagi mutaxassis quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:.....	9
6.	<i>Dorilarni sanoat texnologiyasi sohasidagi mutaxassisning</i> munosabatlariga qo'yilgan talablar	11
7.	Uzluksiz kasbiy ta'lim va <i>Dorilarni sanoat texnologiyasi</i> sohasidagi mutaxassisning attestatsiyasi	11

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan:

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. O'RQ-637 2020 yil 23.09.
3. Tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining davlat talim standartlari asosida malakaviy tavsifnomalarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli qarori va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 26.02.2018-yil 125-sonli "Sog'liqni saqlash muassasalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini boshqarish va tashkil etish bo'yicha davlat talablari" buyrug'i;
6. 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash buyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2017 yildagi PQ-2956-sonli "Tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2012 yil 24 iyuldagi PF-4456-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.
11. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Toshkent, 1997 y., 29 avgust №463-1.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 5 – sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirining 2019 yil 12 avgustdagi "Tibbiyot va farmatsevtika oliy va o'rta maxsus kasb xunar ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 209-sonli buyrug'i
14. O'z DSt 1.9-95. O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Tarmoq standartlarini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va ro'yxatga olish tartibi.
15. O'z DSt 1.0:1998. O'zbekiston Respublikasi standartlash davlat tizimi. Asosiy qoidalar;
16. Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 343-sonli Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1533-sonli Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2012 yil 4 iyuldagi 281-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining Klassifikatori".
1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdagi 36-son qaroriga bilan tasdiqlangan "Magistratura to'g'risida nizom".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "CHet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabr "Oliy o'quv yurtidan



keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 365-son Qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 26 martdagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1942-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2007 yil 10 sentyabrdagi 190-son qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 21 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi PQ-4666-sonli "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash haqida"gi 125-sonli buyrug'i;

Mazkur tartib asosida ishlab chiqilgan Malaka tavsifnomasi Respublika tibbiyot va farmatsevtika oliy talim muassasalari uchun me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, ta'lim-tarbiya, hamda o'quv, ilmiy ishlarini jarayonini tashkil etish, o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

1.2. 70910802 - Dorilarni sanoat texnologiyasi magistratura mutaxassisligi malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilarni belgilaydi:

Oliy ta'limning ushbu malaka tavsifnomasi **5510600 – Sanoat farmatsiyasi (turlari bo'yicha)** ta'lim yo'nalishi negizidagi **5A510603 – Dorilarning sanoat texnologiyasi** mutaxassisligi bo'yicha magistr tayyorlash ta'lim dasturini o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.


1.3. Ushbu malaka tavsifnomasi mo'ljallangan: *Dorilarni sanoat texnologiyasi* mutaxassisligi bo'yicha mutaxassislarni ish faoliyati jarayonida zaruriy bilimlar mazmuniga va kasbiy tayyorgarlik ta'minlashga qaratilgan dasturlar va modul dasturlarini amalga oshirish uchun.

1.4. Dorilarni sanoat texnologiyasi magistratura mutaxassisligi malaka tavsifnomasi ishlatiladi:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul – oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari uchun;
- magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari uchun;
- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) uchun;
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari uchun;
- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar uchun;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari uchun;
- magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar uchun.

1.5. Dorilarni sanoat texnologiyasi magistratura mutaxassisining kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari:

- Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarda ilmiy-pedagogik faoliyatni olib borish;



- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, ilmiy markazlar va laboratoriyalarda ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- farmatsevtikaga oid korxonalar va tashkilotlarida faoliyat yuritish;
- Dori vositalari, parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik va veterinar dori vositalarni ishlab chiqarish korxonalarida, barcha turdagi dorixonalarda (mulk turidan qat'iy nazar), "Dori vositalari, tibbiy ashyolar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartizatsiyasi Davlat Markazi" DUKda, "Dori-darmon" AK da faoliyat yuritish va mutaxassislikka oid kompleks masalalarni echish.

2. DORILARNI SANOAT TEXNOLOGIYASI MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA MALAKA TAVSIFNOMASI

2.1. Dorilarni sanoat texnologiyasi magistratura mutaxassisi bilimi:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishni bilish;
- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qilishni bilishi;
- mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilishni bilish;
- Davlat Farmakopeyasi, hamda boshqa davlatlar Farmakopeyalari bilan ishlashni bilishi zarur;
- dori vositalarining olinish yo'llari va yaratish istiqbollari va O'zbekiston Respublikasida dori vositalarini yaratilishining asosiy yo'nalishlarini bilishi zarur;
- dori vositalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni olib borishni tashkillashtirish va boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, ishlab chiqarish jarayonini tahlil qila olishni bilishi zarur va yangi dorivor substansiya va preparatlar ishlab chiqarish texnologik asos va usullarini ishlab chiqishni bilish;
- mavjud dori preparatlarini takomillashtirish;
- dori vositalarini ishlab chiqarishda yangi yordamchi moddalarni ilmiy tomondan o'rganish va tarkibda qo'llash masalalari;
- dori moddalari, dori preparatlari, yarim fabrikatlar va boshqa maxsulotlarni turg'unligini o'rganish va saqlanish muddatlarini belgilash;
- texnologik jarayon samaradorligini o'rganish;
- kasbiy etika qoidalariga rioya qilish;
- kasbiy muammolar echimini amalga oshirish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil etish, nizoli vaziyatlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazishda yordam berish, tadqiqotlar, ma'lumotlarini to'plash, sintez qilish va tahlil qilishda qatnashish;
- yangi ilmiy natijalarni, ilmiy adabiyotlarni yoki ilmiy loyihalarni tahlil qila olish;
- eksperimental tadqiqotlarda ishtirok etish;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlar va bibliografiyalarni tayyorlashni bilishi lozim.

2.2. Dorilarni sanoat texnologiyasi magistratura mutaxassisining ko'nikmasi:

- barcha dori preparatlar sanoatda ishlab chiqarish olinish usullari bo'yicha etarli amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish va ularni dori vositalar ishlab chiqarishda qo'llay olish texnologiyasiga oid me'yoriy hujjatlarni tuzishni bilish;


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING
TIBBIY TALIMNI RIVOJLANTIRISH
MARKAZI

- dori preparatlar tarkibiga kiruvchi yordamchi moddalarni tanlash, mo‘‘tadil texnologiyasini asoslash;
- tayyor maxsulot uchun boshlang‘ich materiallarni qo‘llash nazoratini olib borish;
- texnologik jarayon davomida ishlab chiqarish nazoratini olib borish va uni registratsiya qilish;
- texnologik jarayon barcha bosqichlarida barcha o‘zgarish va me‘yordan chetlanishlarni ro‘yxatga olish;
- ishlab chiqarish jarayonidagi barcha nazorat turlarini olib borish oraliq maxsulot va tayyor maxsulotlarni belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun;
- xonalar, uskunalar va materiallarni identifikatsiya nazorati; ishlab chiqarish xonalari, texnologik va o‘lchov uskunalar, o‘lchov vositalari, zarur xollarda aseptik sharoit o‘tkazilish qo‘llanish nazoratlari;
- dori vositalari ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni tavsiflaydigan xujjatlarni shakl va turlarini tanlash;
- dori vositalarini ishlab chiqarish qadoqlash bo‘yicha sanoat reglamentini, texnologik yo‘riqnomalarini ishlab chiqish;
- boshlang‘ich jarayonlar uchun (materiallarni baholash, dastlabki ishlov berish, xom ashyoni tortish, jarayon xavfli parametrlarini baxolash) dori vositalari ishlab chiqish uchun standart operatsion jarayonlarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish uskunalarini texnologik jarayonlarga tayyorgarligini texnologik operatsiya jarayonlarini (tozalash, montaj, kalibrovka, sterilizatsiya) ishlab chiqish;
- dori vositalari ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish standart operatsion jarayonlarni ishlab chiqish;
- texnologik xujjatlarni to‘ldirishni tashkillashtirish va xavfsizligini ta‘minlash.

2.3. Asosiy nazariy bilimlar

Dorilarni sanoat texnologiyasi bo‘yicha mutaxassis bilishi kerak:

- Dori vositalarini sanoatda ishlab chiqarish va tibbiyot amaliyotiga joriy etish tizimiga qo‘yilgan Xalqaro talablar asosida faoliyat olib borish;
- original dori preparatlarini texnologiyasini ishlab chiqish, ularning texnologiyasida ro‘y beradigan barcha jarayonlarni aniqlash borasidagi usullarining nazariy asoslari va amaliy tadqiq etish xolatlarni chuqur bilishi.
- ishlab chiqarishni Xalqaro tashkilotlar talablari asosida amalga oshirish va tashkil etish.
- Dori preparatlari sifatini ta‘minlashga oid Xalqaro standartlar (GMP - Good Manufacturing Practice - yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti; GLP - Good Laboratories Practice - yaxshi laboratoriya amaliyoti; GCP - Good Clinical Practice - yaxshi klinika amaliyoti);
- Ishlab chiqarishning turli bosqichlarida xom ashyo oraliq mahsulot - dori moddasi tizimida ishlab chiqarishning turli usullarni qo‘llay olish.
- Meyoriy xujjatlar, ularga qo‘yilgan talablar asosida dori vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish barcha bosqichlari muammolarni echa olish.
- Mayjud me‘yoriy xujjatlarni takomillashtirishga metodologik yondoshish, standartlash, sertifikatlash, ishlab chiqarish jarayonini attestatsiyasini barcha bosqichlarini bilish va bajara olish.
- dori vositalarni ishlab chiqarishda boshlang‘ich xom ashyo va yordamchi moddalar taxlilini olib borish;
- dori vositalari ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan asbob uskunalar va texnologik operatsiyalar, jarayonlarni qo‘llanish usullarini amalga oshirish;
- Farmatsevtik ishlab chiqarish sanoat dokumentatsiyasini (xujjatlashtirilishini) ko‘rib chiqish va tasdiqlash va uni bajarilishini tashkillashtirish;
- Sifatini yaxshilash uchun texnologik jarayonlar olib borilishini baxolash;
- Tasdiqlangan dokumentatsiya asosida kerakli sifatni ta‘minlash maqsadida ishlab chiqarishni tashkillashtirish va tayyor maxsulot saqlash sharoitlarini olib borish;



- Resurslarni iqtisodiy tejamkorligi bilan texnologiyalarni joriy etish, texnologik jarayonlarni mo‘‘tadillashtirish.
- ishlab chiqarish korxonalarida farmatsevtik texnologiyaning barcha usullarini qo‘llay bilish;
- sifat nazorati tizimini amalga oshirish va tashkil etish;
- yangi dori vositalarini izlab topish va tibbiyot amaliyotiga joriy etishning mutaxassis kvalifikatsiyasiga tegishli barcha talabalari uddalay olish;
- dori vositalarining sifatsizligiga sabab bo‘ladigan omillarni bilish va ularni bartaraf eta olish;
- me‘yoriy xujjatlarning barcha turlari va sifat ko‘rsatkichlarni bajara olish va takomillashtirish;
- korxonaning tavsifnomasini hamda ishlab chiqarish texnologik reglamentlari, texnologik sxemalari va boshqa hujjatlarni;
- texnologik qurilma va moslamalarning texnologik echimlarini hisobini baja-rishni hamda korxonaning sexlarining ish quvvati, eksperimental ishlab chiqarishni;
- texnologik sxemalari va boshqa hujjatlarni qo‘llashni;
- mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishidagi o‘quv fanlardan oliy va o‘rta maxsus ta‘limi muassasalarida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini;
- mutaxassislik sohasiga oid ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish va amalga oshirish;
- dori vositalarni sanoat texnologiyasiga oid texnologik, hisobot va me‘yoriy hujjatlarini ishlab chiqishni va rasmiylashtirishni bilishi kerak.

3. DORILARNI SANOAT TEXNOLOGIYASI MAGISTRATURA MUTAXASSISINING MAJBURIYATLARI:


- Dori vositalarini sanoatda ishlab chiqarish va tibbiyot amaliyotiga joriy etish tizimiga qo‘yilgan Xalqaro talablar asosida faoliyat olib borish.
- Original dori preparatlarini texnologiyasini ishlab chiqish, ularning texnologiyasida ro‘y beradigan barcha jarayonlarni aniqlash borasidagi usullarining nazariy asoslari va amaliy tadqiq etish xolatlarni chuqur bilishi.
- Ishlab chiqarishni Xalqaro tashkilotlar talablari asosida amalga oshirish va tashkil etish.
- Ishlab chiqarishning turli bosqichlarida xom ashyo oraliq mahsulot – dori moddasi tizimida ishlab chiqarishning turli usullarni qo‘llay olish.
- Me‘yoriy xujjatlar, ularga qo‘yilgan talablar asosida dori vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish barcha bosqichlari muammolarni echa olish.
- Mavjud me‘yoriy xujjatlarni takomillashtirishga metodologik yondoshish, standartlash, sertifikatlash, ishlab chiqarish jarayonini attestatsiyasini barcha bosqichlarini bilish va bajara olishi kerak.

4. DORILARNI SANOAT TEXNOLOGIYASI MAGISTRATURA MUTAXASSISI TOMONIDAN BAJARILADIGAN FAOLIYAT:

- Farmatsevtikaga oid korxonalar va tashkilotlarida faoliyat yuritish; dori vositalari, parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik va veterinar dori vositalarni ishlab chiqarish korxonalarida, barcha turdagi dorixonalarda (mulk turidan qat‘iy nazar), “Dori vositalari, tibbiy ashyolar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartizatsiyasi Davlat Markazi” DUKda, “Dori-darmon” AK da faoliyat yuritish va mutaxassislikka oid kompleks masalalarni echish;
- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, ilmiy markazlar va laboratoriyalarda mutaxassislikka oid ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borish.

5. DORILARNI SANOAT TEXNOLOGIYASI MAGISTRATURA MUTAXASSISI EGA BO‘LISHI SHART AMALIY KO‘NIKMALAR

Dorilarni sanoat texnologiyasi magistratura mutaxassisi quyidagi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak:



Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- ta'siri modifikatsiyalangan dori vositalarining (tizimlarning) texnologiyasini asoslash;
- dori vositalari texnologiyasiga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish (VFM, KFM, TSH), rasmiylashtirish;
- kompleks ta'sirli, ko'p komponentli gomeopatik suyuq, qattiq, yumshoq dori turlari texnologiyasini asoslash;
- loyhaning qurilish uchun hujjatlari ishlab chiqish va texnik iqtisodiy ko'r-satkichlarni tanlash;
- loyixalangan korxonalarni sanitar-gigienik holatini to'g'ri yo'lga qo'yish, energetik ob'ektlarni, omborxonalarning yo'llarini va boshqa inshootlarni qurishni, oxirgi maqsad korxonani ishlashi uchun qulay sharoit yaratib berish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:


- mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;
- zamonaviy masalalarini echish uchun yangi texnologiyalarni va dasturlar paketlarini qo'llash;
- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, metodlar, dasturiy echimlar, instrumental vositalarni tadqiq qilish va ishlab chiqish;
- namunaviy uslublar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalarini qayta ishlash;
- ilmiy-texnikaviy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlarda ishtirok etish;
- ilmiy-texnikaviy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash;

Ilmiy-pedagogik faoliyatda:

- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.
- mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishidagi o'quv fanlardan oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- loyihalarni boshqarish. ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim;



Konsalting xizmati faoliyatida:

- mutaxassislik bo'yicha mavjud holatning tahliliy sharhlarini ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

6. DORILARNI SANOAT TEXNOLOGIYASI MAGISTRATURA MUTAXASSISINING MUNOSABATLARIGA QO'YILGAN TALABLAR

- Mahalliy xom ashyodan foydalangan holda arzon, bezarar va samarali dori vositalarini yaratishga va ularning nomenklaturasini kengaytirishga, sanoat texnologiyasiga tatbiq etishga qaratilgan kompleks masalalarni echish;
- Respublikamizda mahalliy kompleks ta'sirli ko'p komponentli tibbiyot amaliyotida ishlatiladigan dori vositalar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish;
- Biosamaradorligi isbotlangan ta'siri uzaytirilgan va modifikatsiyalangan dori vositalar texnologiyasiga oid kompleks masalalarni echish;
- Maxalliy farmatsevtik preparatlarni sanoatda ishlab chiqarish sohasida ushbu preparatlarni assortimentini kengaytirish;
- Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, ilmiy markazlarda, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy – tadqiqot jarayonlarini egallash va ilmiy faoliyatni davom ettirish;

7. UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM VA DORILARNI SANOAT TEXNOLOGIYASI MAGISTRATURA MUTAXASSISINING ATTESTATSIYASI

Mutaxassis muntazam ravishda o'zining kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirish lozim:

- qisqa muddatli kurslarda, seminarlarda, konferensiyalarda, master-klasslarda qatnashish;
- stajyorlik va malaka oshirish kurslarida o'qish;
- PhD dissertatsiya ustida ishlash orqali.

Dori vositalar va preparatlar texnologiyasi sohasidagi mutaxassisning attestatsiyasi O'zR Vazirlar Mahkamasining va Sog'liqni saqlash vazirining qaror va buyruqlari asosida amalga oshiriladi ("Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2014 yil 18 dekabrda 21-son buyrug'iga (O'zR Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 19 yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2649]; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabr "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 365-son qarori.

MALAKA TAVSIFNOMASI TUZILISHIDA QUYIDAGI HUJJATLAR BILAN ISHLANGAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Tibbiyot va farmatsevtika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risida" gi 2019 yil 12 avgustdagi 209-sonli buyrug'i;
2. 70910802 - Dorilarni sanoat texnologiyasi magistratura mutaxassisligining Davlat ta'lim standarti. O'z Dst -36.1038 : 2014;
3. 70910802 - Dorilarni sanoat texnologiyasi magistratura mutaxassisligining malaka talablari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2018 y 02.10 dagi 564 –sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.